

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

— 2-2023 —

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

Logoevistika pretsedent fenomen sifatida.....	540
V.Xegay	
Intertekstual bosma sarlavhalarda oldingi matnlarni rasmiy ravishda yangilash	544
Y.Niyazova	
Chet tili sifatida ingliz tilida yozishni o'rgatishning ba'zi muammolari.....	548
Z.Tashtemirova, M.Kushmatova	
Rus va ingliz tillarida odamning ko'rinishini tavsiflovchi frazeologik ekvivalentlar	552
Sh.Xashimova	
Temur Po'latov ijodi haqidagi ba'zi mulohazalar.....	556
I.Azimov	
O'zbek-lotin alifbosini yaratish uchun harakatlar	560
Sh.Nurmuradova	
Texnika oliy o'quv yurtlarida rus tilini o'qitish metodikasi va uning tashkil etilishi	567
B.Xolmirzaev	
Tildagi tasviriy ifodalarning tarjimalarda aks etishi.....	573
A.Eshniyazova	
Zamonaviy qissa tabiati.....	578
R.Ibragimova	
Milliy udumlar – milliy qadriyatlarni shakllantiruvchi mezonidir	582
D.Xoshimova, M.Xusaynova	
Termin va terminologiyaning tarixiy tadriji va ular haqidagi ilmiy qarashlar	586
V.Sultanova	
O'quvchilarda muloqot madaniyatini shakllantirishning didaktik usullari	589
M.Xusenova, Sh.Zoitova	
Chet tili o'rganish jarayonida ko'p uchraydigan xatoliklar (koreys tili misolida)	594
C.Samiyeva	
Tojik tilidagi frazeologik evfemizmlar	597
Sh.Amonturdiyeva	
Diniy matnlarga xos leksik xususiyatlar, uning boshqa funksional uslubga xos matnlar bilan o'xshash va farqli jihatlari.....	601
FANIMIZ FIDOYILARI	
KARIMBERDI EGAMBERDIYEVICH ONARKULOV	605

MILLIY UDUMLAR – MILLIY QADRIYATLARNI SHAKLLANTIRUVCHI MEZONDIR

НАЦИОНАЛЬНЫЕ ТРАДИЦИИ – КРИТЕРИИ, ФОРМИРУЮЩИЕ НАЦИОНАЛЬНЫЕ ЦЕННОСТИ

NATIONAL TRADITIONS ARE THE CRITERIA THAT FORM NATIONAL VALUES

Ibragimova Rayhona Abdumajidovna¹¹Ibragimova Rayhona Abdumajidovna

– Namangan muhandislik-texnologiya instituti “Chet tillar” kafedrasida tayanch doktoranti

Annotatsiya

Maqolada milliy udum, urf-odat, marosim tushunchalarining o'zaro farqli jihatlari, ular bilan bog'liq jarayonlar lingvistik jihatdan tahlil qilingan. Milliy urf-odatlarining milliy va umuminsoniy qadriyatlar sifatidagi milliy xususiyatlari misollar asosida tahlilga tortilgan. Qadriyatlar va udumlarning vujudga kelishi va rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar xalq ma'naviyatini boyituvchi muhim omil sifatida yoritib berilgan. U yoki bu xalqning azaliy an'anasiga aylanib qolgan har bir marosim umuminsoniy qadriyat sifatida insoniylik fazilatlarini, komil inson sifatlarini o'ziga xos tabiatini ochib beruvchi vosita sifatida tahlil qilingan.

Аннотация

В статье лингвистически анализируются различные аспекты понятий национального обычая, традиции, ритуала и связанных с ними процессов. На примерах анализируются национальные особенности национальных традиций как национальных и общечеловеческих ценностей. Выделены факторы, влияющие на создание и развитие ценностей и традиций, как важный фактор, обогащающий духовность народа. Каждый обряд, ставший древней традицией того или иного народа, анализируется как общечеловеческая ценность, как средство раскрытия уникальной природы человеческих качеств, качеств совершенного человека.

Abstract

The article analyzes the different aspects of the concepts of national customs, traditions and ceremonies, and the processes related to them linguistically. National characteristics of national traditions as national and universal values are analyzed based on examples. The factors affecting the creation and development of values and traditions are highlighted as an important factor that enriches the people's spirituality. Each ritual, which has become an ancient tradition of one or another people, is analyzed as a universal value, as a means of revealing the unique nature of human qualities, qualities of a perfect person

Kalit so'zlar: milliy qadriyat, urf-odat, marosim, milliy hususiyat, milliy o'yinlar, odamiylik fazilatlarini, oilaviy munosabatlar, axloq meyorlari, oilaviy marosimlar, hurmat, ta'lim-tarbiya.

Ключевые слова: национальная ценность, традиция, обряд, национальная идентичность, национальные игры, человеческие качества, семейные отношения, нравственные нормы, семейные обряды, уважение, воспитание.

Key words: national value, tradition, ceremony, national identity, national games, human qualities, family relations, moral norms, family ceremonies, respect, education

KIRISH

Ko'p ming yillik tarixga ega bo'lgan o'zbek xalqi asrlar davomida o'ziga xos xilma-xil urf-odatlar, marosimlarni yaratdi. Ular doimiy takrorlanishi va xalqning ularga amal qilib kelishi natijasida umrboqiydir. Turmushga, zamonga qarab ularning ayrimlari unutiladi. Zamonga qarab, yangilari paydo bo'ladi, eng xalqchillari esa avloddan-avlodga o'tib keladi. Badiiy tafakkurning betakror mo'jizalarini o'zida mujassamlashtirgan xalq an'analari, marosim va udumlar, og'zaki poetik ijodiyot namunalari shu muqaddas zaminda ming yillar mobaynida yashab kelgan otabobolarimiz iqtidori va chechan momolarimiz ijodiy salohiyatining mahsuli o'laroq shakllangan azaliy milliy qadriyatdir. Olima R.Ro'ziyeva ta'rifiga ko'ra: "An'analalar – qadimdan insoniyat hayoti, turmushi, mehnati va ibratli hayot saboqlari bo'lib, avloddan-avlodga, o'tmishdan kelajakka meros bo'lib qoladigan, barcha tadbirlarda namoyon bo'ladigan ijtimoiy faoliyat mahsulidir. Marosimlar esa an'analalar va urf-odatlarining amaliy ko'rinishidir. An'analalar va milliy udumlar milliy, madaniy, maishiy, ijtimoiy-siyosiy va diniy bo'lib, milliy qadriyatlarining ajralmas qismidir" [1]. Ko'rinadiki, milliy udum va an'analalar – o'tmishdan kelajakka meros qoladigan, avloddan avlodga o'tadigan, jamiyat hayotining turli sohalarida namoyon bo'ladigan moddiy va ma'naviy qadriyat. Milliy udum va an'analalar xalqlarning tarixiy rivojlanishi jarayonida shakllanadi. Odamlarning turmush tarzi, moddiy

TILSHUNOSLIK

sharoitlari turli urf-odat, udumlarning shakllanishiga ta'sir qiladi. Muayyan ijtimoiy tartib-qoidalar, axloq me'yorlari, urf-odat, marosim va udumlar an'ana sifatida namoyon bo'ladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

O'zbek milliy urf-odatlari, udumlariga oid bir nechta ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan. Ushbu asarlarda marosimlar, urf-odatlarga bog'liq ifodalar turli darajada o'rganilgan. Xususan, A.Jo'raboyev va Z.Xusainovalarning tadqiqotlari o'zbek tilidagi to'y marosimi bilan bog'liq ifodalarning umumiy tadqiqiga, F.Hayitovning tadqiqoti esa nikoh to'yi qo'shiqlarining lingvistik tahlili masalasiga qaratilgan bo'lsa, O.Ismanovning ilmiy ishi kelin salom janrining poetik tadqiqiga va M.Qahhorovning ilmiy ishi o'zbek etnografizmlarining sistemaviy tadqiqiga bag'ishlangan.

Jumladan, M.Sattor "O'zbek udumlari" nomli asarida xalqimiz udumlarini 7 bobga ajratib, ularning o'ziga xos tabiatini ochib berdi. Mazkur kitobda M.Sattor o'zbek xalqi hayotiga xos udumlarni xronologik asosda guruhlagan holda, inson hayotining har qaysi davriga xos milliy udumlarni izohlaydi. Bundan tashqari, kitobda diniy e'tiqodlarga bog'liq urf-odatlar ham jamlangan.

O'zbekiston hududida yashovchi boshqa millatlar ham bugungi kunda o'zbek xalq udum va marosimlariga alohida ahamiyat bermoqdalar. Ayniqsa, oilaviy marosimlar, "Navro'z" va "Hayit" bayramlarida ularning qiziqish bilan ishtirok etishlari ham e'tiborga loyiqdir. O'zbekistonda yashovchi har bir xalq millati, irqi, nasl-nasabining, yoshi darajasi bo'lishidan qat'iy nazar milliy udumlar va an'analarga hurmat bilan qarashi, o'z urf-odatlarining mushtarakligini e'tirof etishi mustaqillik ne'matidir. Shunday ekan an'ana va marosimlarni barhayotligini ta'minlash ularni yoshlar qalb shuuriga singdirish har birimizning sharafli burchimizdir.

Tarixdan tarkib topgan milliy an'ana, urf-odat, rasm-rusum, taomil, marosimlarning vujudga kelishi va rivojlanishiga bir qator omillar bevosita va bilvosita ta'sir ko'rsatadi. Shunday omillardan biri turmush tarzidir. U yoki bu xalqning azaliy an'anasiga aylanib qolgan har bir marosim milliylik qobig'idan chiqib, umuminsoniy qadriyatga aylanadi; tili, dini, turmush tarzi bir-biriga yaqin bo'lgan qo'shni xalqlarni birlashtiradi. Qardosh millatlar orasida bir-birini bog'lovchi ko'priklarni vujudga keltiradi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Or-nomus, hamiyat, mardlik, vijdon amriga itoat etish, adolatpeshalik, haqqo'ylik sifatleri necha asrlardan beri davom etib kelmoqda. Hayo, andisha, lafz, omonatga xiyonat qilmaslik, rostgo'ylik islom dinimizda ham, xalq tushunchasida ham mustahkam o'rin tutib kelgan. «Hayo iymondandir», deyiladi muborak Hadisi sharifda. Ulug' allomalarimiz o'z asarlarida bu xislatlarni komil inson fazilatleri sifatida ulug'lab kelganlar. "Haromdan yiroq yurgin, tongla qiyomat kuni otashda kuymaysan», deya uqtiradi Abduxoliq G'ijduvoni. O'zbek xalqining ma'naviy qiyofasi uning milliy xususiyatlari bilan go'zal va boshqa xalqlardan ham u o'zining ana shu xususiyatlari bilan ajralib turadi. Milliy udumlar, urf-odatlar va an'analalar xalq ma'naviyatini boyituvchi muhim omil ekanligi haqida gapirib, Yoshlar ma'naviyatini turli illatlardan saqlab qolishning eng muhim omili bu tarbiya, tarbiya esa, avvalo, oiladan boshlanadi. Zero, oila jamiyatning bosh bo'g'ini. «Tarbiya, — deyiladi muqaddas «Avesto»da, — hayotning eng muhim tayanchi bo'lib hisoblanishi lozim». Bugungi tahlikali davrda agar ota-onaning o'zi tarbiyalangan, milliy-ma'naviy qadriyatlardan xabardor va unga qat'iy amal qiladigan bo'lsagina, ular tarbiyalayotgan farzandda milliy xususiyatlarni ko'rish mumkin. Haqiqatan, inson tarbiyasi, uning ma'naviy kamoloti oilada tarkib topa boradi. Axir «Qush uyasida ko'rganini qiladi», deb bejiz aytishmaydi. Aynan oila muhitida paydo bo'ladigan ota-onaga hurmat, ularning oldidagi umrbod qarzdorlik burchini chuqur anglash, har qaysi insonga xos bo'lgan odamiylik fazilatleri va oilaviy munosabatlarning negizini, oilaning ma'naviy olami tashkil etadi. Shunday ekan, oiladagi muhitni yaxshilash, har tomonlama mustahkam oilalarni ko'paytirish oldimizda turgan muhim vazifa. Ma'lumki, ota-bobolarimiz qadimdan bebaho boyluk bo'lmish ilmu-ma'rifat, ta'lim va tarbiyani inson kamoloti hamda millat ravnaqining eng asosiy sharti va garovi deb bilgan.

Inson bolasi yoshligidan yaxshi va yomon odatlarning qaysisiga ko'nikib, o'rganib qolgan bo'lsa, bu udum uni bir umr tark etmaydi. Shuning uchun ham xalqimizda, «beshikda tekkan — kafanda ketar» yoki «dard ketar — odat qolar», «illat ketar — odat ketmas» degan maqollar bor.

O'zbekchilikda yetti avlodni bilish ham qadriyat hisoblanadi. Shunga ko'ra, ota-ona farzandlari ulardan faxrlanishlari, hayotiy saboq olishlari uchun halol yashab, boriga qanoat qilib, mehnat qilganlar. O'tmish ma'naviyatini o'z ichiga olgan ana shunday qadriyatlar zanjir vazifasini o'tab, avloddan-avlodga millat urf-odatlarini yetkazib beradi. Bobur mirzo bobosi Temurbek nomini ilk bor otasi Umarshayx mirzo ta'rifida keltirgan: "Valodat va nasabi: sakkiz yuz oltmishda

Samarqandda edi. Sulton Abusa'id mirzoning to'rtinchi o'g'li edi. Sulton Ahmad mirzo, Sulton Muhammad mirzo, Sulton Mahmud mirzodin kichik edi. Sulton Abusa'id mirzo Sulton Muhammad mirzoning o'g'li edi. Sulton Muhammad mirzo Mironshoh mirzoning o'g'li edi. Mironshoh mirzo Temurbekning uchinchi o'g'li edi. Umarshayx mirzo bila Jahongir mirzodin kichik, Shohrux mirzodin ulug' edi" [2]. Bobur asar avvalida otasining nasl va nasabiga to'xtalar ekan, u o'zgacha ruh, alohida mehr va sog'inchu qo'msash bilan batafsil yozgan, hatto, nechanchi o'g'il, kimdan katta, kimdan kichikligi haqida ham izoh va tushuntirish bergan. Umuman, "Boburnoma"ning Amir Temur yodga olingan barcha o'rinlarida u an'anaviy ravishda sohibqironni Temurbek nomi bilan zikr qilgan. Ammo temuriylar xonadoniga mansub bo'lgan o'zining va o'zi kabi boshqa shahzodalarning temuriyodalar ekanligini esa tarixiy fonda yorqin va ta'sirli ifodalash maqsadida ba'zi lavhalarda Bobur "naslidin", "avlodidin", "zodu budi", "xonavodamiz" so'zlarini mahorat bilan qo'llab, "Temurbek naslidin", "Temurbek avlodidin" "Temurbekning zodu budi" yoki "Temurbekdek ulug' podshoh", "Temurbekning yurti", "Temurbek avlodi ilgida", bizning xonavodamiz" tarzida ham zikr etgan

O'zbeklarning boshqa asosiy ildizi turkiylardan boshlaganligiga (turkiylikka xos jangovarlik, mardlik, lafz halolligi) bag'rikenglik sahovatpeshalik, hojatbarorlik kabi hislatlarimizda o'zining yorqin ifodasini topgan. Biz buni ayniqsa xalqimizning to'y-tantalarga o'ta o'chligida, yillar mobaynida yig'ib — terib elga tarqatishdan zavq-shavq olishida, a'za va yo'qlov marosimlarini uyushgan holda o'tkazishda, bola tug'ilishidan tortib to motam marosimlarimizgacha bo'lgan barcha marosim va urf-odatlarimizda, keng jamoatchilik va mahalla ahlining doimo bosh-qosh bo'lishi kabi udumlarimizda kuzatamiz.

Milliy mentalitetimizda turkiylarga xos jihatlar ma'naviy madaniyatimizda, chillaq chavgon, ko'pkari, kurash kabi milliy o'yinlarmizda, "quloqtishlar", "beshikkerti", "qalin", "to'qqiz" kabi rasm-rusum va udumlarimizda, qolaversa, otga bo'lgan o'ziga xos mehr-muhabbat va motam marosimlarda ishtiroki bilan bog'liq udumlarimizda yorqin ifodasini topgan.

Tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak, ota-bobolarimiz azal-azaldan insonni jismonan chiniqtiruvchi, salomatlikka ijobiy ta'sir etuvchi mashqlarga jiddiy e'tibor qaratishganini ko'ramiz. Masalan, ko'pkari musobaqasi har bir ishtirokchidan chavandozlik mahoratidan tashqari jismoniy kuch, o'tkir zehn va yetti o'lchab bir kesish salohiyatiga ega bo'lishni talab qiladi. Ajdodlarimiz shunga mos ravishda tayyorgarlik ko'rib, ham ruhiy, ham jismoniy o'sishga erishganlar. Umuman olganda, milliy sport turlarining barchasi ota-bobolarimizning yashash tarzi, madaniyati va dunyoqarashidan kelib chiqqan holda rivojlangan. O'sha kezlarda kimdir chavandoz, kimdir qilichboz, yana kimdir mergan sifatida tanilgan. Shuningdek, turli o'yinlar va mashqlar tufayli ajdodlarimizda har qanday holatdan olib chiqadigan chaqqonlik, yakkama-yakka olishuvga xos uquv shakllangan. Qadimgi milliy sport turlaridan kurash, ko'pkari, chavgon, chillak kabi milliy o'yinlar-odatlarimizdandir. Abu Rayhon Beruniy ham «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar» nomli ulug' asarlarida Navro'z bayrami tafsilotlarini tasvirlayotganda bu bayramda o'ynaladigan milliy o'yinlardan biri sifatida chavgon o'yini haqida ma'lumot berib o'tgan. Buyuk tabib Abu Ali Ibn Sino ham bola tarbiyasi to'g'risidagi risolalarida jismoniy tarbiya haqida gapirarkan, chavgon o'yini to'g'risida ham alohida to'xtalgan. Haqiqatdan ham jismoniy harakat talab qiladigan o'yinlar o'sib kelayotgan yosh avlodni jismonan chiniqtirish va sog'lom bo'lishlari uchun xizmat qiladi.

Bobur Mirzo bu mardona o'yinni juda sevib o'ynagan. «Boburnoma»dan ilhomlanib asarlar yozgan taniqli adib Pirmqul Qodirov Boburiylar haqidagi tarixiy romanining ikkinchisi — «Avlodlar dovoni»da Humoyun shohning Hamida bonu bilan tanishuvi tasvirini juda go'zal manzaralarda ko'rsatadi.

Boburning opasi Xonzoda begim boshchiligida Navro'z bayrami kunlari Hindistonda chavgon o'yini odati ham namoyish qilinadi. Qizig'i shundaki, shoh ko'chma taxti oldidagi maydonda... qizlar ot minib, chavgon o'yini o'ynaydilar. Bu er yigitlar o'yinida go'zal qiz Hamida bonu o'zini ko'rsatadi. Bu latif, nazokatli, ayni paytda jasur-u barkamol qiz Humoyunshohning nazariga tushib, oqibat uning muhabbatiga sazovor bo'ladi.

XULOSA

Bundan ko'rinadiki, O'zbek xalqining urf-odatlar asrlar bo'yi o'zbeklar millatining tashkil topishida ishtirok etgan barcha qabilalar va elatlarning madaniy malakalari va an'analarning uyg'unlashuvdagi murakkab jarayonlar oqibatida tarkib topgan. O'zbek xalqining ma'naviy qiyofasi uning milliy xususiyatlari bilan go'zal va boshqa xalqlardan ham u o'zining ana shu xususiyatlari

TILSHUNOSLIK

bilan ajralib turadi. Milliy udumlar, urf-odatlar va an'analar xalq ma'naviyatini boyituvchi muhim omildir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ro'ziyeva R. Yoshlarda milliy va umuminsoniy qadriyatlarni shakllantirish. Toshkent: Sharq. 2011 yil. B.56 (Roziyeva R. Formation of national and universal values in youth. Tashkent.2011)
2. Zahiriddin Muhammad Bobur. "Boburnoma". – Toshkent: Sharq NMAK, 2002. – B.45 (Zahiriddin Muhammad Babur. "Baburnoma". – Tashkent.2002)
3. Джурабоев А. Названия свадебных церемоний в узбекском языке: Автореф.дисс. ... канд.филол.наук. Ташкент, 1971; (Djuraboev A. Nazvaniya wedding ceremony in Uzbek language: Avtoref.diss.Tashkent, 1971)
4. Хусаинова З. Ономаσιологическое исследование названий свадебных обрядов в узбекском языке (на материалах Бухарской группы говоров): Автореф.дисс. ... канд.филол.наук. Ташкент, 1984; (Husainova Z. Onomasiological investigation of nazvaniy svadebnykh obryadov v Uzbekskom yazyke (na materialakh Bukharskoy grouppy govorov): Autoref.diss.Tashkent, 1984)
5. Ismanova O.O. O'zbek to'y marosim folklorida "Kelin salom" janri: Filol.fanlari nomzodi ... diss.avtoref. Toshkent, 1999; (Ismanova O.O. Genre "Kelin Salam" in Uzbek wedding ceremony folklore: Candidate of Philology ... diss. author's ref. Tashkent, 1999;)
6. Hayitova F. Nikoh to'yi qo'shiqlarining lingvistik talqini: Filol.fanlari nomzodi..diss. avtoref. Toshkent, 1998. (Hayitova F. Linguistic interpretation of wedding songs: PhD. Tashkent, 1998.)
7. Sattor M. O'zbek udumlari. Toshkent: Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2007. B.192 (Sattar M. Uzbek customs. Tashkent: Publishing house named after Cholpon, 2007. P.192)
8. Murodov M., Qoraboyev U., Rustamova R. Etnomadaniyat. – Toshkent: Adolat, 2003. – B. 8 (Murodov M., Karaboyev U., Rustamova R. Ethnoculture. - Tashkent: Adolat, 2003. - P. 8)